

O‘ZBEK TILIDAGI GRADUONIMIYA VA SINONIMIYA

Saidova Marjona

Termiz davlat universiteti talabasi saidovamarjona0311@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada graduonimiya hodisasining sinonimiyadan farqli jihatlari ot so‘z turkumi misolida yoritib berilgan.*


Kalit so‘zlar: *graduonimiya, sinonimiya, ot so‘z turkumi, lug‘aviy birlik.*

Graduonimiya (gr.gradatio-“ko‘tarilish”, “o‘shish”, onymo-“nom”) – lug‘aviy birliklar o‘zaro ma‘noviy munosabatiga ko‘ra ma‘lum bir darajalanish qatorini hosil etishi. Graduonimiya hodisasini o‘z vaqtida Alisher Navoiy ham payqagan va uni turkiy (o‘zbek) tilining boylik ko‘rsatkichlaridan biri sifatida izohlagan edi. U o‘zining “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida “yig‘lamoq” ma‘noli so‘zlar guruhini ayni shu darajalanish aspektida talqin qiladi: yig‘lamsinmoq-ingramoq- singramoq- o‘kurmoq-hoy-hoy yig‘lamoq kabi. Demak, Alisher Navoiyni shu hodisaning ilk tadqiqotchisi desak bo‘ladi.

Graduonimiyani (ma‘noviy darajalanish) so‘zlararo ma‘noviy munosabatlarning alohida bir turi sifatida o‘rganish 80-yillarning oxirlaridan boshlandi. Tilshunoslikda graduonimiya so‘zlararo ma‘no munosabatlarning alohida bir ko‘rinishi sifatida ajratilganiga qadar, belgini darajalab ifodalovchi so‘zlar sirasi sinonimlar (ma‘nodosh so‘zlar) doirasida o‘rganilar edi. Sinonimlar bir umumiy ma‘noni ifodalovchi ikki yoki undan ortiq so‘zlardir. Ma‘nodosh so‘zlar bir ma‘noni xilma-xil so‘zlar orqali turli nozik ma‘no qirralari bilan ifodalashda, so‘z sehrini ifoda etishda, nutqni bezashda, ta‘sirchanligini ta‘minlashda katta ahamiyatga ega. Masalan: Basharasiga tushgan qamchi zarbidan yerga yiqildi. Uning quvnoq chehrasi suv betida qizga yanada yoqimli ko‘rindi. Ammo pichirlamoq-gapirmoq-baqirmoq so‘zlari sinonimlar qatoridan o‘rin ololmas edi. Mana shu farq graduonimiyani sinonimiyadan ajratib turadi. Graduonimiya va sinonimiya hodisalarining o‘zaro munosabati haqida O.Bozorov o‘z ilmiy ishida ayrim ma‘lumotlar beradi: “Graduonimiya va sinonimiya hodisalari o‘zlarining asos belgilariga ko‘ra keskin farqlanadilar. Zero sinonimiya ikki va undan ortiq leksema va frazema sememalarining aynanligiga asoslansa, graduonimiya sememalar asosiy semalardagi gradatsiyali farqlanuvchiga tayanadi. Bunday sinonimlardagi asosiy ma‘nolarning tengligi, graduonimiyada esa teng emasligi ma‘lum bo‘ladi”. [Bozorov 1997, 84]

Sinonimlar bir- birining o‘rnida ishlatila olsa, sinonimik qatordagi so‘zlar ma‘nodosh leksema hisoblansa, graduonimiya darajani ifodalashi va graduonimik qator a‘zolarining o‘zaro farqlanishi bilan ajralib turadi. Quyidagi ot so‘z turkumi misolida fikrimizni yanada





oydinlashtirib olamiz. “Vatan” soʻzi oʻz atrofida diyor, yurt, mamlakat, el kabi soʻzlarni qurshab oladi va bu soʻzlar oʻz navbatida sinonimik qatorni yuzaga keltiradi. Ushbu soʻzlar bir- birining oʻrnida almasha olish xususiyatiga ham ega. Masalan, “Kim oʻz yurtini sevmasa, u hech nimani seva olmaydi” (Jorj Bayron). Mana shu gapdagi “yurt” soʻzi oʻrnida vatan, diyor, el soʻzlarini ham qoʻllashimiz mumkin.

Graduonimiya oppozitsiyaning (zidlanishning) bir turi deb qaraladi va shu qatordagi bosh soʻzga nisbatan belgilanadi. Masalan, yosh belgisiga koʻra (bosh soʻz ajratib koʻrsatilgan): buzoq-tana-gʻunajin-sigir; qiz-juvon-ayol.

Leksemalarning maʼno munosabatlarida darajalanish yaqqol koʻzga tashlanib turibdi va ushbu graduonimik qatordagi soʻzlarni oʻz navbatida bir- birining oʻrnida qoʻllab boʻlmaydi.

Darajalanish qatorining eng muhim qurilish belgisi unda bir umumiy belgi miqdorining ortib yo kamayib borishidir. Graduonimik qatorning muhim belgilaridan yana biri bu qatorda aynanlikka nisbatan farqlilik boʻrtib turadi va farqlilik omilining yetakchiligida (bir umumiy sema belgisi miqdorining ozaytirilishi yoki kamaytirilishi natijasida) yangidan yangi leksemalar (graduonimlar) hosil qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qahramon Eshboyev “ Graduonimiya va sinonimiyaning oʻzaro munosabati masalasi xususida” maqolasi. Soʻz sanʼati xalqaro jurnali.
2. H.Jamolxonov “ Hozirgi oʻzbek adabiy tili” Toshkent “Talqin” 2005.
3. Nargiza Erkaboyeva “ Oʻzbek tilidan maʼruzalar toʻplami” Toshkent “ Yosh kuch” 2021.

